



MAKTABGACHA VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



A.AVLONIY NOMIDAGI  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



JIZZAX VILOYATI  
PEDAGOGIKA MARKAZI

**“INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FAN, TA'LIM VA ISHLAB  
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI  
(2024-YIL, 15-IYUN)**

# **MATERIALLARI**

**“ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND  
PRODUCTION BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES:  
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**


**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
ONLINE CONFERENCE  
(JUNE 15, 2024 Y)**

# **MATERIALS**





Yuqoridagi ta'rifdan  $\angle ABC = \angle AOC : 2 = 60^\circ : 2 = 30^\circ$   
JAVOB:  $30^\circ$



Bir masalani turli usulda yechish mumkin. Ular orasidan engil, tushunarlisini aniqlash lozim. Ba'zi masalalarni yechishda masalani yengilgina yechishga yordam beruvchi sun'iy usullar va yordamchi shakllardan ham foydalaniladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Prezident Shavkavkat Mirziyoyev 12-iyun 2020 yil. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika institutiga tashrifi
2. D. Xusanov, N. B. Shamsiddinov "Yoshlarning mustaqil ijodiy fikrlash faoliyatini rivojlantirishda geometrik masalalarning o'rni". "Halq ta'limi" ilmiy-metodik jurnal. 2020 yil. 5-son.
3. Q. Bobonorova, S. Davletova "Yoshlarning mustaqil ijodiy fikrlash faoliyatini rivojlantirishda geometrik masalalarning ahamiyati" TDPU 2024
4. J. Husanov, N. Shamsiddinov, On the role average values in solving geometric extreme. international journal on integrated education. vol. 6. 2022.

#### **TELEFONLARNING ZARARLI VA FOYDALI TOMONLARI**

*Yusufova Dinora Orom qizi*

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika  
instituti talabasi*

**Annotasiya:** Mazkur maqolada telefonning sog'liqqa zarari va psixologik ta'siri ko'rsatib berilgan bo'lib, amaliyotchi psixologning bajaradigan vazifalari belgilab berilgan.

**Kalit so'zlar:** mobil telefon, telefon, instagram, internet, e-mail.

**Annotation:** This article shows the harm and psychological effects of the telephone on health, and defines the duties of a practicing psychologist.

**Keywords:** mobile phone, phone, Instagram, Internet, e-mail.

**Аннотация:** В данной статье показаны вред и психологическое влияние телефона на здоровье, а также определены обязанности практикующего психолога.

**Ключевые слова:** мобильный телефон, телефон, Instagram, Интернет, электронная почта.

Hayotimizda bo'lgan tobe'liklar orasida mobil telefonga tobe'ligi ham mavjuddir. Biz telefonsiz bir kunimizni ham tasavvur qila olmaymiz. Bugungi texnologiyalar shu darajaga yetdiki, mobil telefon qo'ng'iroq, instagram, feecbook, e-mail internet orqali bog'lanishning global vositasiga aylandi. Bundan tashqari

telefonda, foto – video kamera, o‘yinlar, dasturlar, programmalar, yondaftarcha, rejalashtiruvchi bo‘lim, soat, radio, matnli jadval shu kabi bir qator funksiyalar bor. Ammo bir tamondan mobil telefon erkinlikni to‘rsib qo‘yadi, har bir daqiqada sizga qo‘ng‘iroq qilishadi va sizning rejalarinigiz tubdan o‘zgaradi.

Hozirgi kunda bolalarni ovitish maqsadida bu mobil telefon ovinchoq sifatida bolalarni o‘rsib ulg‘ayishini sustlashtiryapti. Ota -onalar «o‘g‘lim yoki qizim yig‘lamay tursa ishimni bitirib olsam» deb ota-onalar «yig‘lama telefonni o‘ynab tur» deb bolalarga ovinchoq maqsadida ishlatishadi. Bolalar kelajakda telefonga bog‘lanib har xil kasalliklar orttirshadi. Ota -onalarining birgina xatosi sababli bola ko‘z nuridan ajralishi ham mumkin. Mobil telefon oqibatida ko‘zoynak taqishiga to‘g‘ri keladi. Bunda kim aybdor bo‘lganini ota -onasi ham bilishmay qoladi. Oqibatda bola har xil dori darmonlarni olib yurishga majbur bo‘lishadi. Bola shu ahvolga tushgandan keyin esa boshqa narsalar bilan ovitishga harakat qilishadi. Bolalar mobil telefonga bor e‘tiborini qaratib kitob o‘qisa ham telefondan uzoqlashishi qiyin kechadi.

Mobil telefon paydo bo‘lish sabablari talaygina, avval aytilganidek bu atrofdagilar orasida ajralib turish va o‘zini ko‘rsatish istagini olib keluvchi, o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, balki kimdir yolg‘iz qolishga qiynaladi bu odam telefonini kichik do‘st sifatida bir daqiqaga ham qo‘ymaydi. Bu hali qo‘rqinchli emas, ko‘zatilishicha buni faqat yuzdan birgina odam tushina oladi, angelaydi va ixtiyoriy tomonini inson bir o‘zi yolg‘iz bu bilan kurasha olmaydi. Bir daqiqaga ham mobil telefonimizni qo‘ymaymiz ishimizni qilayotganimizda ham qo‘limizda telefon ovqatlanayotkanimizda ham telefon bu mobil telefon kundalik hayotimizga kirib bormoqda va kirib bordi ham. Bunda zararli oqibatlardan vos kechgan holda kurash olib borilishi zarur. Buning uchun mobil telefoni qo‘yib bir o‘zimizga nazar solishimiz kerak, atrof-muhitga nazar tashlashimiz kerak. Telefonga bog‘lanib qolishni yo‘qotish uchun halal bermaydigan sabablarini ko‘rib chiqish kerak. Tunda telefonni o‘chirib qo‘yishga odatlaning, foydalanmayotganingizda uni cho‘ntagingizga solib qo‘ying, uni hammaga ko‘rsatish shart emas, chunki boshqalarning telefoni sizdikidan kam emas. Eng muhimi dam olayotgan vaqtingizda hatto bu tushlikdan so‘ng uyqu vaqti bo‘lsa ham telefonni o‘vhirib qo‘ying. Dars vaqti yig‘ilishda, do‘stlar davrasida uchrashuv vaqtida ham o‘chirib qo‘ying va asosiysi yaqinlaringizni bu haqida ogohlantirishni unutmang. Bolalarga ham telefonga bo‘lgan yomon oqibatlarini tushuntiring. Ota – onalar bolalariga vaqt ajratib ular bilan bolalik davrini telefondan uzoqda foydali maslahatlar berishsin. Ota – ona bolalarga namuna bo‘lib, boshqa yo‘llarini o‘ylab yaxshi tomonlari haqida namuna bo‘lsin. Mobil telefondan ham unimli, foydali bilimlar haqida ota-ona o‘rgatsin. Bolalarga kitob olib bersin. Namuna uchun ham ota -ona bolalarining oldida o‘tirib kitob o‘qisin, chunki bolalar atrofida nima bo‘lsa shuni ko‘rib katta bo‘lishadi. Ota -ona daraxt ildizi bo‘lsa, farzandlar shu daraxtni qanchalik chiroyli va keng o‘shishiga bog‘liq. Agar ota – ona farzandlar hayoti uchun befarq bo‘lsa bolalar hayoti qiyin kechadi.

Biroq har narsaning me‘yori bo‘lgani kabi, mobil telefondan foydalanishning ma‘lum talablari bo‘lishi kerak. Zero vertual olamga qattiq bog‘lanib qolish